


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**THE ROLE OF ARABIC VARIATIONS IN THE ECONOMIC TERMINOLOGY OF PASHTU LANGUAGE**

**Charos Khasanova**

Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

**Navruzbek Tairov**

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** word formation, acquisition, affixation, composition, terminology.

**Received:** 28.05.23

**Accepted:** 30.05.23

**Published:** 01.06.23

**Abstract:** This article is devoted to Arabic borrowings in Pashtun economic terminology, primarily the importance of the modern Pashtun language, the study of Pashtun terminology and borrowings, the compatibility of economic terms borrowed from Arabic with Pashtun and Arabic, the issues of word formation through economic assimilation are considered. studied.

**PASHTU TILI IQTISODIY TERMINOLOGIYASIDA ARAB O'ZLASHMALARINING O'RNI**

**Charos Xasanova**

O'qitvuchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

**Navro'zbek Tohirov**

Magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** so'z yasalishi, o'zlashma, affiksatsiya, kompozitsiya, terminologiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola pashtu tili iqtisodiy terminologiyasida arab o'zlashmalariga bag'ishlangan bo'lib, avvalo hozirgi zamон pashtu tilining ahamiyati, Pashtu tilida terminologiya va o'zlashmalarning o'rganilishi, arab tilidan o'zlashgan iqtisodiy terminlarning pashtu tili

bilan mosligi va arabcha iqtisodiy o‘zlashmalar orqali so‘z yasalishi masalalari o‘rganildi.

## РОЛЬ АРАБСКИХ ВАРИАЦИЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ ПУШТУ

**Чарос Хасанова**

*Преподаватель*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

**Наврузбек Таиров**

*студент магистратуры*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** словообразование, приобретение, аффиксация, состав, терминология.

**Аннотация:** Данная статья посвящена арабским заимствованиям в пуштунской экономической терминологии, в первую очередь важности современного пуштунского языка, изучению пуштунской терминологии и заимствований, сочетаемости заимствованных из арабского языка экономических терминов с пуштунскими и арабскими, рассмотрены вопросы словообразования путем экономических ассимиляций. изучал.

### KIRISH

Hozirgi zamon pashtu tiliga jahoning muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tillardan biri sifatida qaraladi. Mazkur til o‘tgan asrda rus va yevropa olimlari tomonidan sezilarli darajada o‘rganilgan bo‘lsada, hozirgi zamon pashtu tilining o‘ziga xos xususiyatlari va grammatik qoidalarini bilib olish uchun juda ko‘p miqdorda nazariy va amaliy izlanishlarni talab qilmoqda. Biroq, o‘zbek tilida bunday muhim tadqiqotlar, pashtu tili va uning alohida bo‘limlarini, shu jumladan uning terminologiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar juda kam. Biz buning sababini quyidagi fikrlar bilan izohlashimiz mumkin. Pashtu tili O‘zbekiston oliv o‘quv yurtlarida yarim asrlardan ko‘p vaqt davomida chet tili sifatida o‘qitilmoqda. Ilgarilari oliv o‘quv yurtlarimizda pashtu tili ta’limi ko‘proq rus tilida olib borilgan bo‘lsa, hozirgi kunda o‘qitish jarayoni ko‘proq davlat tili – o‘zbek tilida olib borilmoqda. Bu esa, pashtu tili bo‘yicha monografik tadqiqotlar, o‘quv-metodik manbalarni o‘zbek tilida tayyorlash va nashr etish zarurartini tug‘dirmoqda.

### ASOSIY QISM

Pashtu tili terminologiyasi bo‘yicha ham nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham yetarlicha ma‘lumotlar topish mushkul vazifalardan biridir. Pashtu tilida esa

doktor Bushra Ikramning “پښتو اصطلاحات سازی” (“Pashto tili terminologiyasi”) va Peshovar universiteti dotsenti Muhammad Ali Dinakhel qalamiga mansub د اصطلاحات سازی نظری “مباحث” (“Terminlar shakllanishinig nazariy muhokamasi”) nomi ostidagi ilmiy maqolalar bizga ma'lum. Bundan tashqari, Nangahor universiteti professorlari Abdulloh Odil va Omonulloh Vrinnig (Iqtisodiy va tijorat terminlari) nomli inglizcha-pashtucha izohli lug'ati ham mavjud. Pashto tilida arab o'zlashmalarining o'rni haqida so'z yuritilganda esa, B.Q. Xolidovning “Арабские заимствования в современном литературном языке пушту” (“Zamonaviy pashto tilida arab o'zlashmalar”) nomli dissertatsiyasini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Dunyo tillarining hech birisi yo'qki, rivojlanish va o'sish bosqichini tashqi omillar ta'sirisiz bosib o'tgan bo'lsa. Har bir tilning lug'at boyligi shakllanishi uchun avvalambor, tilning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo'lgan so'zlar va boshqa tillar bilan bo'lgan o'zaro ta'sir natijasida tilning lug'at boyligiga qabul qilingan so'z va qo'shimchalar, ya'ni o'zlashmalar asos bo'ladi. Bu ushbu tilning boshqa tillar bilan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda qay darajada aloqaga kirishganligiga bog'liqdir. Pashto tilida o'zlashmalar mavzusi bo'yicha to'liqroq ishni amerikalik olim G. Penzlning “Western Loanwords in modern Pashto” deb nomlangan maqolasida ko'rishimiz mumkin. Rus olimlaridan K.A. Lebedev, M.G. Aslanov va boshqa afg'onshunos olimlar ancha samarali tadqiqotlar qilishgan. Fan va texnika tarqqiyoti, ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohalaridagi yangiliklar mislsiz darajada yangi so'z va terminlar yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilida va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay, pashto tili lug'at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qilib kelmoqda. Kirib kelgan yangi so'z va terminlar pashtu tilining o'z ichki imkoniyatlariga suyangan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan pashtun xalqi o'zining og'zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelmoqda. O'zlashmalarning tilga kirib kelishi har davrda o'ziga xos bo'lgan. Arabcha o'zlashmalarning pashtu tiliga kirib kelishining dastlabki davrlarida og'zaki nutq, og'zaki aloqa muhim o'rin tutgan bo'lsa, keyinchalik yozma manbalar, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari nutqi, ayniqsa tarjima va matbuot tili muhim rol o'ynagan. Afg'oniston keyingi yillarda iqtisodiy va madaniy rivojlanayotgan, davlat tiliga ko'plab yevropa va boshqa tillaridan o'zlashmalar kirib kelayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Arabcha iqtisodiy so'zlarining, nafaqat iqtisodiy so'zlearning balki boshqa sohaga oid so'zlearning ham pashto tili leksikasiga kirib kelishining asosiy sababi uzoq o'tmishda arablarning hozirgi Afg'oniston hududlaridagi mavqeyi va diniy omillardir.

O'zlashmalarning fonetik moslashuvi. Har bir tilda, albatta, boshqa tillardan kirgan so'zlar mavjud bo'ladi. Pashto tilida ham arab va boshqa tillardan kirgan so'zlar mavjud, ammo bu so'zlearning deyarli barchasi pashtu tilining grammatic qonuniyatlariga bo'ysunadi. Misol uchun:

Arab tilidagi ۱, ۲, ۳ bilan tugagan so‘zlar va infinitivlar pashto tilida muannas jins shaklida qo‘llaniladi.

## Masalan:

1. فرضیه خبرنے رہبیری کوی [faraziya]- faraz (faraz tadqiqodga rahbarlik qiladi)
  2. نری کی د حلالو تولیداتو تقاضا ولی دېرہ شوی؟ [taqozo]- talab (Dunyoda nega halol mahsulotlarga talab ortmoqda?)

Shuningdek, ў harfi bilan tugagan arabcha so‘zlar ham muannas shaklda qabul qilingan.

## Masalan:

- د یوه بنه رفاعي ويلبي ده [ruboi]- ruboiy (U yaxshi rubooy o'qidi)  
ما یوه بنه مثنوي ليکلی ده [masnavi]- masnaviy (men yaxshi bir masnaviy yozdim) مثنوي

Arab tili undosh harflari bilan tugagan barcha infinitivlar va so‘zlar ma’noviy jihatdan muannas jinsga mansub bo‘lganlardan tashqari qolgan barchasi muzakkarr shaklda ishlatalidi.

Masalan:

- اعتدال کی اعتماد بنه دی (har bir ishda adolat yaxshi) په هر کار کی اعتماد (etidlol) چو تعصبات بد کار دی (xurofot yomon ishdır).

Undosh harflar bilan tugaydigan barcha arabcha sifatlarga pashtu tilida « suffiksini qo‘shish orqali muannas jinsga aylantiriladi.

Masalan:

- عاقل** - [oqil]- oqil  
**فاضل** - [fozil]- fozil

Arab tilidagi ص – ش harflari o‘rnida pashto tilida umumiy س harfi talaffuz qilinadi. ط harfi esa ت harfiga aylanadi. Aksariyat hollarda esa ق harfi ك harfiga mos ravishda talaffuz qilinadi. ذ va ظ harflari uchun esa talaffuzda ز harfi qo‘llanilsa, o‘z navbatida ع harfi । ga o‘zgaradi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu turdagи o‘zgarishlarni lahjalarda ham uchratish mumkin.

Masalan: عورت عالم او رنگی زیست so'zi o'mniga va hokazo.

Agar bitta so‘zda ikki yoki undan ortiq arabcha harflar kelsa, unda u harflar pashtu tilidagi talaffuzi o‘xshash harflar bilan almashadi.

Masalan: **کمیس** kabi so‘zlar طمع, مصرع, قمیص تمه, مسره kabi ko‘rinishlarda yoziladi va talaffuz qilinadi.

Aytish joizki, hozirgi kunda pashtunlar yashaydigan hududlarda yashovchi arablar pashtu tilida gaplashadi.

Arab tilidagi ۱ harfi bilan tugovchi masdarlar va boshqa so‘zlarga pashtu tilida **وي گاني** va suffikslarini qo‘sish orqali ko‘plik shakli hosil qilinadi.

**التاجي - التجاكي - استهانجي - استهانوي**

Undosh harflar bilan tugaydigan arab infinitivlari va ismlaridan ko‘plik shakli hosil qilinganda ularga arab tilida ko‘plik shaklini yasashda ishtirok etuvchi **ان** suffiksi emas, balki pashtu tiliga xos bo‘lgan **ونه** suffiksi qo‘shiladi.

**علم - علمونه انعام - انعامونه انقلاب - انقلابونه**

O‘zlashmalar ishtirokida so‘z yasalishi. Pashtu tilida so‘z yasalishining dunyo tilshunoslik soxasida uchraydigan affiksatsiya, yarimaffiksatsiya, kompozitsiya, kalkalash kabi deyarli barcha turlari uchraydi. Biroq iqtisodiy o‘zlashmalar orqali so‘z yasalishi haqida gap ketganda, so‘z yasalishining affiksatsiya va kompozitsiya usullari yuqori pog‘onaga ko‘tariladi.

Affiksatsiya usuli bilan terminlar hosil qilinishi. Pashtu tilidagi mahsuldor yasovchi qo‘sishchalaridan biri bu **ي** [i] suffiksi bo‘lib, u asosan, pashtu tiliga xos bo‘lmagan, ya’ni o‘zlashma so‘zlearning ot so‘z turkumiga qo‘silib, ulardan xoslikni bildiruvchi sifat so‘z turkumini yasaydi. Misol:

	Pashtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
1.	اقتصادي	[iqtisodi]	economical	iqtisodiy
2.	ارتجاعي	[irtijoyi]	elastic	reaksion
3.	انحصاري	[enxsori]	monopolistic	monopolistik

Kompozitsiya usuli bilan terminlar hosil qilinishi. Kompozitsiya usulida yasalgan so‘zlar ikki mustaqil ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi. E’tiborli tomoni shundaki, arab tilidan o‘zlashgan iqtisodiy o‘zlashmalar orqali so‘z yasalganda asosan pashtu tilining fe’l so‘z turkumi va uning noaniq shakli harakat nomi, ot, sifat so‘z turkumiga oid yangi birliklar hosil bo‘ladi. Bunda ko‘pincha yasalmaning ikkita qismidan bittasi pashtucha leksemalardan tashkil topishi mumkin.

Masalan:

	Pushtu tilida	Transkripsiya	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
1.	تخصی کول	[taxsis kavl]	allocation	ajratish
2.	مرکبہ ربح	[murakkaba rabx]	compound interest	qo‘sishcha foiz
3.	ثابت لگبنت	[sobit lagesht]	constant cost	doimiy narx
4.	تابع متتحول	[tobe mataxavl]	Dependent variable	qaram o‘zgaruvchanlik
5.	مستقیمه اریکه	[mustaqima arika]	direct relation	bevosita aloqa

6.	بنکاره اتحاد	[shkora itixod]	explicit collation	yashirin ittifoq
----	--------------	-----------------	--------------------	------------------

**XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz joizki, pashtu tilini, shu jumladan, uning terminologiya sohasini o‘rganish hozirgi o‘zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biri ekan. Biz ishning yakunidan arab tilidan pashtu tiliga kirib kelgan iqtisodiy terminlarning deyarli barchasi pashtu tilining grammatik qoidalariiga amal qilishini keltirib o‘tilgan misollar orqali ko‘rib chiqdik. Shu bilan birga arab tilidan kirib kelgan ayrim so‘zlarning pashtu tilining ta’siri ostida fonetik, orfografik va orfoepik o‘zgarishlarga uchragani ham o‘z tasdig‘ini topgani holda, pashtu tilida tilshunoslikda mavjud bo‘lgan so‘z yasalish usullariniq deyarli barchasi mavjud bo‘lishiga qaramasdan, arab tilidan o‘zlashgan iqtisodiy terminlar orqali so‘z yasalganda faqat affiksatsiya va kompozitsiya usullarining sermahsulligi aniqlandi. Bundan tashqari yangi hosil qilingan affiksal yasalmalar aynan pashtu tiliga xos affikslar yordamida yasalishi ham pashtu tili so‘z yasalishida uning ichki imkoniyatlarining ta’siri sezilarli darajada ekanligidan dalolat beradi. Kompozitsiya usuli orqali yasalgan yangi so‘zlar qismlaridan birining pashtucha til birliklaridan iborat bo‘lishi ham yuqoridagi fikrimizni yana bir bora tasdiqladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Adil A., Vreen A. Econpmic-business terms. German-Afghan University Society (DAUG). 2009.
2. Dinakhel M. د اصطلاحات سازی نظری مباحث // Bi-Annual Research journal. 2017.
3. Ikram B. پښتو اصطلاحات سازی // Bi-Annual Research journal. 2021.
4. Inomxojayev R. Pashtu tili grammatikasi. – T.: Inovatsion rivojlanish, 2020.
5. Xolidov B.Q. Арабские заимствования в современном литературном языке пушту.
6. Грамматика языка пушту. – Москва, 1956.
7. Пушту-русский словарь. – Москва, 1966.
8. ڦکریا ملاتر. پی پښتو ڙبه د نورو ڙبو وييونه او اصطلاحات. - کابل، ۲۰۱۸
9. <https://taandnet.net>
10. <https://www.bbc.com>